



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

- |          |                                                                                    |
|----------|------------------------------------------------------------------------------------|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari                                                                 |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi                                |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)                      |
| 13.00.03 | Muxsus pedagogika                                                                  |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi                  |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi                                        |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment                                                                 |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi                             |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika                                                                |
| 07.00.00 | Tarix fanlari                                                                      |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari                                                                |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari                                                          |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari                                                                      |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari                                                                  |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari                                                                    |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari                                                                 |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari                                                                 |



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 42 sahifa,  
13-iyul, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                            |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash .....                                                              | 10 |
| <a href="#">Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</a>                                                                                         |    |
| Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda<br>qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari ..... | 14 |
| <a href="#">Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</a>                                                        |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....                               | 19 |
| <a href="#">Dadonova Aziza Tulkunovna</a>                                                                                                  |    |
| Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili.....                                          | 23 |
| <a href="#">Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</a>                                                         |    |
| Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi .....                                                                                 | 30 |
| <a href="#">Tuksanova Zilola Izatulloevna</a>                                                                                              |    |
| Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarining qiyosiy tahlili .....                                                  | 35 |
| <a href="#">Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</a>                                                         |    |



# ILK O'SPIRINLIK YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING O'Z-O'ZIGA BO'LGAN MUNOSABATINI PSIXOLOGIK TAHLILI

Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna

Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi,  
p.f.b.f.d., (PhD)

Panjiyeva Nargiza Botirovna

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati tizimi ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Kolmogorov-Smirnov mezon, Student t-mezon va Spearman korrelyatsion tahlili usullaridan foydalanilgan holda, o'quvchilarning o'z-o'ziga munosabat ko'rsatkichlaridagi jinsiy va hududiy (Termiz shahri va Angor tumani) farqlar aniqlangan. Shuningdek, shaxsning o'zini baholashi, emotsional barqarorligi hamda ekstrovertlik-introvertlik xususiyatlari o'rtasidagi tizimli bog'liqliklar ochib berilgan va o'quvchilarda adekvat munosabatni shakllantirish bo'yicha xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilar, o'z-o'ziga munosabat, jinsiy differentsiatsiya, hududiy muhit, o'zini-o'zi baholash, emotsional barqarorlik, ichki nizolilik, ekstrovertlik.

**Abstract:** This article presents a socio-psychological analysis of the self-attitude system of upper-grade school students. Utilizing the Kolmogorov-Smirnov test, Student's t-test, and Spearman's correlation analysis within the framework of the study, gender and regional (Termez city and Angor district) differences in students' self-attitude parameters were identified. Furthermore, systemic correlations between self-esteem, emotional stability, and extraversion-introversion characteristics were revealed, and conclusions on forming an adequate self-attitude in students were formulated.

**Key words:** upper-grade students, self-attitude, gender differentiation, regional environment, self-esteem, emotional stability, internal conflict, extraversion.

**Аннотация:** В данной статье представлен социально-психологический анализ системы самоотношения учащихся старших классов. В рамках исследования с использованием критерия Колмогорова-Смирнова, t-критерия Стьюдента и корреляционного анализа Спирмена были определены гендерные и территориальные (г. Термез и Ангорский район) различия в показателях самоотношения учащихся. Также раскрыты системные взаимосвязи между самооценкой личности, эмоциональной стабильностью и характеристиками экстраверсии-интроверсии, сформулированы выводы по формированию адекватного самоотношения у учащихся.

**Ключевые слова:** учащиеся старших классов, самоотношение, гендерная дифференциация, территориальная среда, самооценка, эмоциональная стабильность, внутренний конфликт, экстраверсия.

## KIRISH

Zamonaviy psixologiya fanida shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati muammosi inson psixik taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda "Men" konsepsiyasining shakllanishi, o'z imkoniyatlarini anglash, o'zini baholash hamda jamiyatdagi o'rnini belgilash jarayonlari psixologik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davr shaxs rivojlanishining murakkab va ziddiyatli bosqichi bo'lib, unda o'quvchilarning o'ziga nisbatan munosabati nafaqat ichki psixologik holatni, balki ularning ijtimoiy faolligi, kommunikativ qobiliyati va kelajakdagi hayotiy pozitsiyasini ham belgilab beradi.

Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati ko'plab ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida shakllanadi. Jumladan, oilaviy muhit, ta'lim tizimi, tengdoshlar bilan munosabat, pedagogik yondashuv hamda ommaviy axborot vositalarining ta'siri bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, mazkur yosh davrida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z "Men"ini namoyon qilish, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish ehtiyoji kuchayadi. Natijada o'zini anglash va o'ziga baho berish jarayonlari yanada faollashadi.

Psixologik tadqiqotlarda o'z-o'ziga bo'lgan munosabat shaxsning emotsional barqarorligi, motivatsion sohasi hamda ijtimoiy moslashuv darajasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Ijobiy o'zini baholash shaxsda



ishonch, qat'iyat va faol hayotiy pozitsiyani shakllantirsa, salbiy o'zini baholash esa ichki ziddiyatlar, xavotirlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik jihatdan tahlil qilish bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatining psixologik xususiyatlari, uning shakllanish mexanizmlari hamda shaxs rivojlanishidagi ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan mamlakatimiz rivojlanishi uchun juda zarurdir.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati muammosi psixologiya fanida shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan.

V. V. Stolin o'z-o'ziga munosabatni shaxsning o'z "Men"iga nisbatan hissiy va baholovchi munosabatlarini birlashtiruvchi murakkab psixologik tizim sifatida izohlaydi.

S. R. Panteleyev esa o'z-o'ziga munosabat tarkibida o'ziga ishonch, o'zini qabul qilish, o'zini boshqarish, ichki nizolilik va o'zini ayblash kabi o'zaro bog'liq komponentlarni ajratib ko'rsatadi. Mazkur yondashuvlar shaxsning o'zini anglashi va baholashini kompleks psixologik hodisa sifatida tadqiq etishga imkon beradi.

E. G'. G'oziyevning ilmiy qarashlarida o'zini anglash va o'zini baholash shaxsning psixologik taraqqiyoti, mustaqilligi hamda ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z o'rnini belgilash bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi.

F. L. Xaydarov va N. I. Xalilova shaxsning o'ziga munosabati uning individual-psixologik xususiyatlari, emotsional holati va ijtimoiy tajribasi ta'sirida shakllanishini ta'kidlaydilar.

Ushbu nazariy yondashuvlar ilk o'spirinlik davrida o'z-o'ziga munosabatning shakllanishini jinsiy, hududiy va individual-psixologik xususiyatlar bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishimizda ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga munosabatini tadqiq etishda V.V.Stolin va S.R.Panteleevlarning "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" so'rovnomasidan foydalanildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot obyektlarining o'z-o'ziga munosabati bo'yicha empirik natijalar tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Kolmogorov-Smirnov mezonida statistik tahlil (N = 68)

| Shkalalar                                              | O'rtacha qiymat | Standart og'ish | Z qiymat | p       |
|--------------------------------------------------------|-----------------|-----------------|----------|---------|
| Ichki samimiylilik yoki yopiqlik ochiqlik              | 6,51            | 1,766           | 1,138    | 0,150   |
| O'z-o'ziga ishonch                                     | 8,72            | 1,969           | 1,126    | 0,158   |
| O'zini-o'zi boshqarish                                 | 6,68            | 2,147           | 1,100    | 0,178   |
| O'z-o'ziga bo'lgan munosabatni aks ettirilishi         | 6,22            | 1,907           | 0,875    | 0,428   |
| O'zini-o'zi baholash                                   | 8,69            | 2,782           | 1,883    | 0,002** |
| O'zini-o'zi qabul qilish                               | 7,00            | 2,437           | 1,091    | 0,185   |
| O'z-o'ziga bog'langanlik                               | 6,22            | 1,915           | 1,077    | 0,196   |
| Ichki nizolilik                                        | 6,01            | 3,501           | 0,741    | 0,642   |
| O'zini-o'zi ayblash                                    | 3,88            | 2,600           | 1,340    | 0,055   |
| Javoblarning ishonchlilik darajasini aniqlovchi shkala | 4,32            | 1,723           | 1,426    | 0,034*  |
| Ekstrovertlik- introvertlik shkalasi                   | 11,71           | 2,534           | 1,331    | 0,058   |
| Emotsional barqarorlik shkalasi                        | 10,57           | 4,882           | 1,136    | 0,151   |

Ichki samimiylilik yoki yopiqlik-ochiqlik shkalasida Z qiymat - 1,138; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,138$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

O'z-o'ziga ishonch shkalasida Z qiymat - 1,126; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,126$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

O'zini-o'zi boshqarish shkalasida Z qiymat - 1,100; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,100$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

O'z-o'ziga bo'lgan munosabatning aks ettirilishi shkalasida Z qiymat - 0,875; p qiymat - 0,05 ( $D = 0,875$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

O'zini-o'zi baholash shkalasida Z qiymat - 1,883; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,883$ ;  $p < 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz noparametrik tahlil qilindi.



O'zini-o'zi qabul qilish shkalasida Z qiymat - 1,091; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,091$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

O'z-o'ziga bog'langanlik shkalasida Z qiymat - 1,077; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,077$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

Ichki nizolilik shkalasida Z qiymat - 0,741; p qiymat - 0,05 ( $D = 0,741$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

O'zini-o'zi ayblash shkalasida Z qiymat - 1,340; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,340$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

Javoblarning ishonchlilik darajasini aniqlovchi shkalada Z qiymat - 1,426; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,426$ ;  $p < 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz noparametrik tahlil qilindi.

Ekstrovertlik-introvertlik shkalasida Z qiymat - 1,331; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,331$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

Emotsional barqarorlik shkalasida Z qiymat - 1,136; p qiymat - 0,05 ( $D = 1,136$ ;  $p > 0,05$ ) ga teng. Shkalamiz parametrik tahlil qilindi.

Tadqiqotimiz natijalari tahlili aksariyat shkalalar bo'yicha olingan natijalarda p qiymati 0,05 dan yuqori bo'lgani sababli ma'lumotlar normal taqsimotga mos ekanligi aniqlandi. Shu bois ushbu ko'rsatkichlarni statistik jihatdan tahlil qilishda parametrik usullardan foydalanildi. Parametrik tahlil talablariga javob bergan shkalalar bo'yicha keyingi bosqichda guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida Student t-mezoni qo'llanildi. Mazkur statistik metod yordamida ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatiga oid ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlari o'rtasidagi farqlarning ishonchlilik darajasi tahlil qilindi.

**2-jadval: Student t-mezoni asosida sinaluvchilarning jinsi ko'rsatkichi bo'yicha statistik tahlil (N = 68)**

| Shkalalar                                      | Sinaluvchilarning jinsi | N  | O'rtacha qiymat | Standart og'ish | t      | p        |
|------------------------------------------------|-------------------------|----|-----------------|-----------------|--------|----------|
| Ichki samimiylik yoki yopiqlik ochiqlik        | Yigitlar                | 33 | 6,06            | 1,983           | -2,111 | 0,039*   |
|                                                | Qizlar                  | 35 | 6,94            | 1,434           |        |          |
| O'z-o'ziga ishonch                             | Yigitlar                | 33 | 8,09            | 2,296           | -2,676 | 0,009*   |
|                                                | Qizlar                  | 35 | 9,31            | 1,388           |        |          |
| O'zini-o'zi boshqarish                         | Yigitlar                | 33 | 6,15            | 2,476           | -2,001 | 0,049*   |
|                                                | Qizlar                  | 35 | 7,17            | 1,671           |        |          |
| O'z-o'ziga bo'lgan munosabatni aks ettirilishi | Yigitlar                | 33 | 5,70            | 2,008           | -2,265 | 0,027*   |
|                                                | Qizlar                  | 35 | 6,71            | 1,690           |        |          |
| O'zini-o'zi baholash                           | Yigitlar                | 33 | 7,00            | 1,953           | -6,009 | 0,000*** |
|                                                | Qizlar                  | 35 | 10,29           | 2,504           |        |          |
| O'zini-o'zi qabul qilish                       | Yigitlar                | 33 | 6,30            | 2,812           | -2,367 | 0,021*   |
|                                                | Qizlar                  | 35 | 7,66            | 1,830           |        |          |
| O'z-o'ziga bog'langanlik                       | Yigitlar                | 33 | 5,67            | 2,102           | -2,397 | 0,019*   |
|                                                | Qizlar                  | 35 | 6,74            | 1,578           |        |          |
| Ichki nizolilik                                | Yigitlar                | 33 | 5,58            | 3,580           | -1,004 | 0,319    |
|                                                | Qizlar                  | 35 | 6,43            | 3,424           |        |          |
| O'zini-o'zi ayblash                            | Yigitlar                | 33 | 4,21            | 2,997           | 1,016  | 0,313    |
|                                                | Qizlar                  | 35 | 3,57            | 2,160           |        |          |

Ichki samimiylik (yopiqlik-ochiqlik) shkalasi bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida jinslar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra, qiz bolalarda ( $t = -2,111$ ;  $p < 0,05$ ) ushbu ko'rsatkich o'g'il bolalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Bu holat qiz bolalarda muloqotga ochiqlik, o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalash va emotsional samimiylikning nisbatan kuchliroq namoyon bo'lishi bilan izohlanishi mumkin.

O'z-o'ziga ishonch shkalasi bo'yicha statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida qiz bolalarda ( $t = -2,676$ ;  $p < 0,05$ ) o'g'il bolalarga nisbatan ko'rsatkich nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Bu qizlarning o'z fikrini erkin ifodalashi, o'ziga bo'lgan ishonchi va muloqotda faolroq bo'lishi bilan izohlanadi.

O'zini-o'zi boshqarish shkalasi statistik tahlili natijalariga ko'ra, 95% lik ishonch darajasida qiz bolalarda ushbu ko'rsatkich nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Bu holat qiz bolalarda o'z xatti-harakatlarini nazorat



qilish, vaziyatga mos ravishda o'zini tutish hamda mas'uliyatni his qilish kabi xususiyatlarning biroz kuchliroq namoyon bo'lishi bilan izohlanishi mumkin ( $t = -2,001$ ;  $p < 0,05$ ).

O'z-o'ziga bo'lgan munosabatning aks ettirilishi shkalasi bo'yicha statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida qiz bolalarda ushbu ko'rsatkich o'g'il bolalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Bu holat qiz bolalarda o'zini anglash, o'ziga baho berish hamda o'z ichki holatini ifodalash qobiliyatining nisbatan rivojlanganligi bilan izohlanishi mumkin ( $t = -2,265$ ;  $p < 0,05$ ).

O'zini-o'zi baholash shkalasi bo'yicha statistik natijalarga ko'ra, 99,9% ishonch darajasida qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan ko'rsatkich yuqoriroq chiqdi. Bu ularning o'zini yaxshiroq anglashi va o'ziga baho berishda faolroq ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ba'zi holatlarda o'zini biroz ortiqcha baholash yoki hissiyotga tez berilish ham kuzatilishi mumkin ( $t = -6,009$ ;  $p < 0,05$ ).

O'zini-o'zi qabul qilish shkalasi bo'yicha natijalarga ko'ra, 95% ishonch darajasida qiz bolalarda ko'rsatkich yuqoriroq chiqdi. Bu ularning o'zini qanday bo'lsa, shunday qabul qilishi va o'ziga nisbatan ijobiyroq munosabatda bo'lishi bilan bog'liqdir ( $t = -2,367$ ;  $p < 0,05$ ).

O'z-o'ziga bog'langanlik shkalasi bo'yicha statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida qiz bolalarda ushbu ko'rsatkich nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Bu holat qiz bolalarda o'z ichki kechinmalariga ko'proq e'tibor qaratish, o'z fikr va hissiyotlariga tayangan holda qaror qabul qilish hamda o'zini chuqurroq tahlil qilishga moyillikning nisbatan kuchliroq namoyon bo'lishi bilan izohlanadi ( $t = -2,397$ ;  $p < 0,05$ ).

Ichki nizolilik shkalasi bo'yicha statistik tahlil natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida jinslar o'rtasida ishonchli farqlar aniqlanmadi. Bu holat o'g'il va qiz bolalarda ichki nizolilik darajasining deyarli bir xil ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, ikkala jins vakillarida ham o'z ichki kechinmalarini boshqarish va psixologik muvozanatni saqlash ko'rsatkichlari o'xshash darajada shakllangan ( $t = -1,004$ ;  $p > 0,05$ ).

O'zini-o'zi ayblash shkalasi natijalariga ko'ra, 95% ishonch darajasida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida sezilarli farq aniqlanmadi. Bu esa ikkala jins vakillarida ham xatolarga munosabat deyarli bir xil ekanini, ya'ni o'zini ayblash darajasi o'xshash ekanini ko'rsatadi ( $t = 1,016$ ;  $p > 0,05$ ).

Navbatdagi bosqichda ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga munosabati V. V. Stolin va S. R. Panteleyevlarning "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" so'rovnomasi asosida hududiy jihatdan empirik tahlil qilindi (3-jadval).

**3-jadval: Student t-mezoni asosida sinaluvchilarning hududi jihatidan statistik tahlili (N = 68)**

| Shkalalar                                      | Sinaluvchilarning hududi | N  | O'rtacha qiymat | Standart og'ish | t      | P      |
|------------------------------------------------|--------------------------|----|-----------------|-----------------|--------|--------|
| Ichki samimiylilik yoki yopiqlik ochiqlik      | Angor                    | 35 | 5,94            | 1,814           | -2,898 | 0,005* |
|                                                | Termiz                   | 33 | 7,12            | 1,516           |        |        |
| O'z-o'ziga ishonch                             | Angor                    | 35 | 9,00            | 1,799           | 1,209  | 0,231  |
|                                                | Termiz                   | 33 | 8,42            | 2,122           |        |        |
| O'zini-o'zi boshqarish                         | Angor                    | 35 | 6,26            | 1,945           | -1,681 | 0,097  |
|                                                | Termiz                   | 33 | 7,12            | 2,288           |        |        |
| O'z-o'ziga bo'lgan munosabatni aks ettirilishi | Angor                    | 35 | 5,83            | 1,706           | -1,773 | 0,081  |
|                                                | Termiz                   | 33 | 6,64            | 2,044           |        |        |
| O'zini-o'zi baholash                           | Angor                    | 35 | 8,26            | 2,525           | -1,333 | 0,187  |
|                                                | Termiz                   | 33 | 9,15            | 3,001           |        |        |
| O'zini-o'zi qabul qilish                       | Angor                    | 35 | 6,51            | 2,306           | -1,717 | 0,091  |
|                                                | Termiz                   | 33 | 7,52            | 2,502           |        |        |
| O'z-o'ziga bog'langanlik                       | Angor                    | 35 | 5,71            | 1,994           | -2,317 | 0,024* |
|                                                | Termiz                   | 33 | 6,76            | 1,696           |        |        |
| Ichki nizolilik                                | Angor                    | 35 | 5,14            | 3,318           | -2,173 | 0,033* |
|                                                | Termiz                   | 33 | 6,94            | 3,499           |        |        |
| O'zini-o'zi ayblash                            | Angor                    | 35 | 3,03            | 2,431           | -2,943 | 0,004* |
|                                                | Termiz                   | 33 | 4,79            | 2,497           |        |        |

Student t-mezoni asosida tahlil natijalariga ko'ra, ichki samimiylilik yoki yopiqlik-ochiqlik shkalasida 95% lik ishonch darajasida farq tafovuti aniqlandi. Hududlar kesimida Termiz shahrida ichki samimiylilik yoki yopiqlik-ochiqlik yuqori natijani qayd etdi ( $t = -2,898$ ;  $p < 0,05$ ).



O'z-o'ziga ishonch shkalasi tahliliga ko'ra, ishonch darajasida farq tafovutlari aniqlanmadi. Tadqiqotimizdagi hududlar kesimidagi o'quvchilarimizda o'z-o'ziga ishonch deyarli bir xil ko'rsatkichlarda ekanligi kuzatildi ( $t = 1,209$ ;  $p > 0,05$ ).

O'zini-o'zi boshqarish shkalasida ishonch darajasida farq tafovutlari kuzatilmadi. Tadqiqotimizdagi hududlar kesimidagi respondentlarimizda o'zini-o'zi boshqarish deyarli bir xil ko'rsatkichlarda ekanligi kuzatildi ( $t = -1,681$ ;  $p > 0,05$ ).

O'z-o'ziga bo'lgan munosabatning aks ettirilishi shkalasida farq tafovuti aniqlanmadi. Tadqiqotimizdagi hududlar kesimidagi respondentlarimizda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatning aks ettirilishi deyarli bir xil ko'rsatkichlarda ekanligi kuzatildi ( $t = -1,773$ ;  $p > 0,05$ ).

O'zini-o'zi baholash shkalasida farq tafovuti aniqlanmadi. Tadqiqotimizdagi hududlar kesimidagi respondentlarimizda o'zini-o'zi baholash deyarli bir xil ko'rsatkichlarda ekanligi kuzatildi ( $t = -1,333$ ;  $p > 0,05$ ).

O'zini-o'zi qabul qilish shkalasida farq tafovuti aniqlanmadi. Tadqiqotimizdagi hududlar kesimidagi respondentlarimizda o'zini-o'zi qabul qilish deyarli bir xil ko'rsatkichlarda ekanligi kuzatildi ( $t = -1,717$ ;  $p > 0,05$ ).

O'z-o'ziga bog'langanlik shkalasi bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, Angor va Termiz hududlari o'rtasida 95% lik darajada sezilarli farq mavjudligi aniqlandi. Ushbu farq statistik jihatdan ishonchli bo'lib, 95% darajada tafovut mavjudligi qayd etilgan. Shuningdek, Termiz shahrida Angor tumaniga nisbatan o'z-o'ziga bog'langanlik xususiyati sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi ( $t = -2,317$ ;  $p < 0,05$ ).

Ichki nizolilik shkalasi bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, Angor va Termiz hududlari o'rtasida 95% lik darajada sezilarli farq mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, Termiz shahrida Angor tumaniga nisbatan ichki nizolilik xususiyati sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi ( $t = -2,173$ ;  $p < 0,05$ ).

O'zini-o'zi ayblash shkalasi bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, Angor va Termiz hududlari o'rtasida 95% lik darajada sezilarli farq mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, Termiz shahrida Angor tumaniga nisbatan o'zini-o'zi ayblash xususiyati sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi ( $t = -2,943$ ;  $p < 0,05$ ).

Tadqiqot jarayonida ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga munosabati komponentlarining shakllanganlik holatining shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liqligi bo'yicha korrelyatsion tahlil amalga oshirilib, statistik ko'rsatkichlar navbatdagi 4-jadvalda aks ettirilgan.

**4-jadval: Spearman korrelyatsion tahlil mezoni asosida o'zaro bog'liqlikni aniqlash tadqiqoti (N = 68)**

| Shkalalar                                      | Javoblarning ishonchlilik darajasini aniqlovchi shkala | Ekstrovertlik-introvertlik shkalasi | Emotsional barqarorlik shkalasi |
|------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|-------------------------------------|---------------------------------|
| Ichki samimiylilik yoki yopiqlik ochiqlik      | -0,232                                                 | 0,391**                             | 0,372**                         |
| O'z-o'ziga ishonch                             | -0,206                                                 | 0,294*                              | 0,269*                          |
| O'zini-o'zi boshqarish                         | -0,217                                                 | 0,240*                              | 0,392**                         |
| O'z-o'ziga bo'lgan munosabatni aks ettirilishi | -0,054                                                 | 0,227                               | 0,089                           |
| O'zini-o'zi baholash                           | -0,197                                                 | 0,446**                             | 0,357**                         |
| O'zini-o'zi qabul qilish                       | -0,224                                                 | 0,338**                             | 0,434**                         |
| O'z-o'ziga bog'langanlik                       | -0,180                                                 | 0,254*                              | 0,275*                          |
| Ichki nizolilik                                | -0,486**                                               | 0,108                               | 0,616**                         |
| O'zini-o'zi ayblash                            | -0,378**                                               | 0,133                               | 0,525**                         |

95% = 0,05\*; 99% = 0,01\*\*

Ichki samimiylilik yoki ochiqlik shkalasi hamda ekstrovertlik-introvertlik shkalasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish natijasida ijobiy yo'nalishdagi, statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsiya aniqlandi ( $r = 0,391$ ;  $p < 0,01$ ). Ushbu natija shuni ko'rsatadiki, respondentlarda ichki ochiqlik darajasi ortgani sari ekstrovertlik xususiyatlari ham kuchayib boradi, ya'ni shaxsning ijtimoiy faolligi va muloqotga kirishish tendensiyasi oshadi.

Ichki samimiylilik yoki ochiqlik shkalasi hamda emotsional barqarorlik shkalasi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish natijasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsiya aniqlandi ( $r = 0,372$ ;  $p < 0,01$ ). Mazkur natija respondentlarda ichki ochiqlik darajasi ortishi bilan emotsional barqarorlik ko'rsatkichlari ham ijobiy yo'nalishda o'zgarishini, ya'ni shaxsning hissiy muvozanati va psixologik barqarorligi kuchayib borishini ko'rsatadi.

O'z-o'ziga ishonch shkalasi hamda ekstrovertlik-introvertlik shkalasi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish natijasida ijobiy yo'nalishdagi, statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsiya aniqlandi ( $r = 0,294$ ;  $p < 0,05$ ). Ushbu natija shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda o'z-o'ziga ishonch darajasi ortishi bilan ularning ijtimoiy faolligi, muloqotga kirishuvchanligi hamda ekstrovertlik xususiyatlari kuchayib boradi.



O'z-o'ziga ishonch shkalasi bilan emotsional barqarorlik o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,269$ ;  $p < 0,05$ ). Mazkur natija o'quvchilarda o'ziga ishonch darajasi ortishi bilan hissiy muvozanat va psixologik barqarorlik ham yaxshilanib borishini ko'rsatadi.

O'zini-o'zi boshqarish va ekstrovertlik–introvertlik shkalalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,240$ ;  $p < 0,05$ ). Bu holat shaxsda o'z xulqini nazorat qilish darajasi ortishi bilan ijtimoiy faollik va muloqotga kirishuvchanlik ham kuchayishini bildiradi.

O'zini-o'zi boshqarish va emotsional barqarorlik shkalalari o'rtasida ijobiy va ahamiyatli bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,392$ ;  $p < 0,01$ ). Bu natija o'zini boshqarish qobiliyati yuqori bo'lgan shaxslarda emotsional barqarorlik darajasi ham yuqori ekanligini ko'rsatadi.

O'zini-o'zi baholash va ekstrovertlik–introvertlik o'rtasida kuchliroq ijobiy bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,446$ ;  $p < 0,01$ ). Bu shuni anglatadiki, o'zini ijobiy baholaydigan o'quvchilar ko'proq ijtimoiy faol, ochiq va kommunikativ xususiyatlarga ega bo'ladi.

O'zini-o'zi baholash va emotsional barqarorlik shkalalari o'rtasida ijobiy va ahamiyatli bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,357$ ;  $p < 0,01$ ). Natija o'zini yuqori baholash shaxsning hissiy muvozanati va stressga chidamliligini oshirishini ko'rsatadi.

O'zini-o'zi qabul qilish va ekstrovertlik–introvertlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,338$ ;  $p < 0,01$ ). Bu shaxs o'zini qanchalik qabul qilsa, uning ijtimoiy faolligi va ochiq shunchalik yuqori bo'lishini bildiradi.

O'zini-o'zi qabul qilish va emotsional barqarorlik shkalalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,434$ ;  $p < 0,01$ ). Natija o'zini qabul qilish darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda hissiy barqarorlik ham kuchli ekanligini ko'rsatadi.

O'z-o'ziga bog'langanlik va ekstrovertlik–introvertlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,254$ ;  $p < 0,05$ ). Bu shaxsning ichki "Men"ga tayanganligi uning ijtimoiy faolligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi.

O'z-o'ziga bog'langanlik va emotsional barqarorlik shkalalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,275$ ;  $p < 0,05$ ). Natija ichki tayanchga ega shaxslarda emotsional barqarorlik ham yaxshiroq rivojlanganligini ko'rsatadi.

Ichki nizolilik va javoblarning ishonchlilik darajasi o'rtasida salbiy va ahamiyatli bog'liqlik aniqlangan ( $r = -0,486$ ;  $p < 0,01$ ). Bu ichki ziddiyatlar kuchaygan sari respondent javoblarining ishonchliligi pasayishini anglatadi.

Ichki nizolilik va emotsional barqarorlik shkalalari o'rtasida ijobiy va kuchli bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,616$ ;  $p < 0,01$ ). Bu natija ichki hissiy keskinlik ortishi bilan emotsional jarayonlarning faollashishi va hissiy barqarorlik darajasining o'zgarishini ko'rsatadi.

O'zini-o'zi ayblash va javoblarning ishonchliligi o'rtasida salbiy bog'liqlik aniqlangan ( $r = -0,378$ ;  $p < 0,01$ ). Bu o'zini ko'proq ayblaydigan shaxslarda javoblar nisbatan noaniq yoki subyektiv bo'lishi mumkinligini bildiradi.

O'zini-o'zi ayblash va emotsional barqarorlik shkalalari o'rtasida ijobiy va ahamiyatli bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0,525$ ;  $p < 0,01$ ). Bu natija o'zini ayblash tendensiyasi kuchli bo'lgan shaxslarda emotsional zo'riqish va ichki hissiy faollik ham yuqori bo'lishini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga bo'lgan munosabat tizimining shakllanishi ularning shaxs taraqqiyoti va ijtimoiy shakllanishining fundamental asosi hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqot va uning psixologik tahlili asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Jinsiy differentsiatsiyaning xususiyatlari: ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga munosabat tizimida jinsga xos bo'lgan sezilarli farqlar mavjud. Qiz bolalarda ichki samimiylik, o'z-o'ziga ishonch, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini anglash va qabul qilish ko'rsatkichlari o'g'il bolalarga nisbatan ustunlik qiladi. Bu holat maktab ta'limining yakuniy bosqichida qizlarning ijtimoiy-psixologik jihatdan tezroq shakllanishi, emotsional refleksiyaning kuchliligi hamda o'z ichki dunyosini anglash qobiliyatining rivojlanganligi bilan izohlanadi. O'g'il bolalarda esa o'zini namoyon qilish ko'proq tashqi xulq-atvor orqali kechib, ichki "Men"ni tahlil qilishga moyillik nisbatan sustroq namoyon bo'ladi.

Hududiy muhit ta'siri: shaxs shakllanadigan ijtimoiy-hududiy muhit ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga munosabatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shahar muhitida tahsil oluvchi ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda muloqotga ochiqlik va ichki samimiylik yuqori bo'lishi bilan bir qatorda, ularda ichki nizolilik, o'z-o'ziga bog'langanlik va o'zini-o'zi ayblash tendensiyalari ham kuchliroqdir. Bu holat shahar muhitidagi ijtimoiy talablarning qat'iyligi, shaxsiy raqobatning yuqoriligi va ijtimoiy rollarning xilma-xilligi o'quvchilarda nafaqat faollikni, balki muayyan darajada ichki psixologik keskinlikni ham yuzaga keltirishidan dalolat beradi.

Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati ularning individual-psixologik xususiyatlari bilan yaxlit tizimni tashkil etadi. O'quvchining o'zini ijobiy baholashi va qabul qilishi uning ijtimoiy faolligi,



muloqotga kirishuvchanligi hamda emotsional barqarorligi bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga, o'quvchida ichki nizolar va o'zini ayblash hissi ortgan sari, uning o'z-o'zini xolis baholashi qiyinlashadi va psixologik mudofaa mexanizmlari ishga tushadi.

Taniqli olimlarning fundamental qarashlarida ta'kidlanganidek, shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati – bu shunchaki ichki his-tuyg'u emas, balki insonning butun faoliyatini, ijtimoiy moslashuvini va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishini belgilab beruvchi yadroviy tuzilmadir. Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda adekvat o'z-o'ziga munosabatni shakllantirish, ularda ichki nizolarni kamaytirish hamda emotsional barqarorlikni ta'minlash nafaqat ta'lim-tarbiya tizimining, balki bugungi kunda mamlakatimizda intellektual salohiyatli va ruhan sog'lom yangi avlodni tarbiyalashdek dolzarb strategik vazifaning uzviy qismi hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. - 6 (766)-son. - B. 38.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
3. Mamaradjabova, B. A. "Psychological interpretation of the phenomenon of happiness in the process of personal self-realization." World Bulletin of Social Sciences 23 (2023): 64-69.
4. Sharafutdinova X.G., Jo'rayeva S.N., Mamaradjabova B.A. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent.: 2022-yil
5. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2018.
6. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Toshkent. "Universitet". - 2002.
7. F.L.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Darslik. Toshkent. "Innovatsiya-Ziyo". 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №7(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.